

O'ZBEKISTONDA GILAMDO'ZLIK TARIXI

Terdu Jahon tarixi kafedrası o'qıtuvchısı

Mallayev Dilmurot Tursunmurodvich

Annotatsiya: Ushbu maqolada gilamto'qish san'ati tarixi, Markaziy Osiyo va G'arbiy Yevropada uning rivojlanish bosqichlari, hozirgi ahvoli va imkoniyatlari haqida bir qancha ma'lumotlar berildi.

Kalit so'zlar: gilamchilik sohasi, julxirs, patli gilamlar, naqshlar.

Аннотация: В данной статье представлены некоторые сведения об истории искусства ковроткачества, этапах его развития в Средней Азии и Западной Европе, его современном состоянии и возможностях.

Ключевые слова: ковровая промышленность, джультхирсы, перьевые ковры, узоры.

Abstract: This article provides some information about the history of the art of carpet weaving, the stages of its development in Central Asia and Western Europe, its current state and opportunities.

Key words: carpet industry, julkhirs, feather carpets, patterns.

Gilamchilik –gilam to'qish san'ati, badiiy hunarmandlik sohasining bir turi hisoblanadi. Gilamdo'zlik har bir aholining xo'jalik faoliyati bilan bog'liq bo'lganuy an'anaviy mashg'ulot turidan amaliy san'at turi sifatida rivojlanib bormoqda. Sohaning asosiy xomashyo manbasi dehqonchilik va chorvachilikdan olingan paxta, kanop, zig'ir va jun hisoblanadi. Qadimdan chorvachilik bilan shug'ullanadigan ko'chmanchi qabilalar orasida juda keng tarqalgan. O'simlik (paxta, zig'ir, jut) tolasi, jun (qo'y, echki, tuya juni) dan tayyorlangan. Gilam to'qish uchun qirqilgan junlar yuvilib tozalanadi, temir taroqlarda taraladi, taralgan junlardan ip yigiriladi. Iplar turli tabiiy bo'yoqlar bilan bo'yaladi. Shuning uchun gilam ranglari o'zgarmaydi va o'zining sifatini yo'qotmaydi. Hozirda sun'iy tolalardan ham to'qilmoqda. Gilamning paydo bo'lgan vaqtini aniq aytish qiyin, chunki jun chidamsiz bo'lib, qadimiy gilamlar saqlanib qolmagan. Eng qadimiy gilam milloddan avvalgi VI-V asrlarga oid bo'lib, Tog'li Oltoydan topilgan bo'lib, u yerlar abadiy muzloqda bo'lganligi sababli yaxshi saqlangan. Olimlarning taxminiga ko'ra, u Axomaniylar davri forslari yoki Markaziy Osiyo qabilalari orasida tayyorlangan (hajmi 1,8x2 m, naqsh mujassamoti: handasiy shakllar nilufar gullar bilan bezatilgan, keng hoshiyalarida otliq chavandozlar, xoldor bug'ular, grifonlar tasviri bor).[1:Qadimiy va ilk o'rta asrlar gilamga oid ma'lumotlar yozma manbalarda saqlangan. Saljuqiylar davrida gilamlar ("ko'nya"-topilgan joy nomidan) ko'plab tayyorlangan va Misr, Hindiston, Xitoyga chiqarilgan. O'rta asrlarda Gilam uch yo'nalishda

rivojlangan: 1.Ko'chmanchivayarimko'chmanchichorvadorqabilalarda;2.O'troq(qishloqyokish ahar) aholiorasida;3.Saroy ustaxonalarida.Tadqiqotchilar Eron, Kavkaz orti, Markaziy Osiyo gilamlarini alohida ko'rsatib o'tganlar.XVI asrdagi saroy (eron) gilamlari yaxshi saqlangan. Bu gilamlar ("Turunj", "Shoh Abbos", "Bog'", "Ov" va boshqalar) amaliy san'atning nodir namunalaridir. Ular miniatyura ustalari –musavvirlarning chizgilari asosida to'qilgan. Gilamlar Turkiyada, Boburiylar davrida Hindistonda ("Mo'g'ul", "Agra" va boshqa), Misr, Suriya, Kavkaz ortida taraqqiy etdi.XVIII-XIX asrlarda gilamlar Zakavkazy va Markaziy Osiyoda

saroylarda emas, balki xalq orasida keng tarqaldi. Asosiy markazlari Kazax, Ganja, Shirvon, Boku, Naxichevan bo'lgan Zakavkazye gilamlari rang-barang mujassamoti, ijro usuli va badiiy jihati bilan, Markaziy Osiyo gilamlari ("Salor", "Sariq", "Taka yovmut", "Bashir" va boshqalar) qizil rangining teranligi, handasiy gullari va o'ta pishiqligi bilan ajralib turadi. G'arbiy Yevropa gilamchiligida XVI asrdan fransuz, nemis gilamchiligi alohida o'rin tutgan. XVII-XVIII asrlardan patli gilamlar (1624 yilda Parijda) ishlab chiqarila boshlangan, keyinroq Angliya va Ispaniyada ham patli gilamlar tayyorlash yo'lga qo'yilgan. XIX asrdan gilamlar fabrikalarda ishlab chiqarila boshlagach, uning sifati keskin pasayib ketdi. XX asr o'rtalaridan badiiy hunarmandlikda gilamni qayta tiklashga urinishlar samarali bo'ldi. Polsha, Bolgariya, Ruminiya, Yugoslaviya patli gilamlari bilan bir qatorda patsiz gilamlar ham tayyorlana boshladi. Gilam Markaziy Osiyo, xususan, O'zbekistan hududida juda qadimdan rivojlangan (Xorazmdagi arxeologik qazishlar paytida miloddan avvalgi 1-ming yillikka mansub gilam namunasi topilgan). [2:92] Gilam bilan, asosan, ayollar shug'ullangan, naqsh (gul)lar (islamiy, girih, hayvon shakllari, turli narsalar tasviri, urug' tamg'asi va boshqalar)ni esa xotiradasaqlashgan. Bezaklarida yo'lbars va tuya izlari, olma guli, uzum zangi, tuya bo'yni, qalqon, o'simliklar ifodalangan, ayniqsa hayvonshoxi tasviri keng tarqalgan. [3:87] Mujassamotining berkligi, markaziy maydonning naqshli hoshiya bilan o'ralganligi (yo'l-yo'l naqshlar bundan mustasno) Markaziy Osiyo gilamlari uchun o'ziga xos bo'lgan, naqshining aniqligi, go'zal bo'lishi va ranglarining uyg'unligi ularning badiiy qimmatini oshirgan. Asosiy rang qizil rang va uning 2-3 turi bo'lib, ko'k, qora, oq, sariq ranglar ikkinchi darajali bo'lgan. Ranglarning mohirona ishlatilishi bilan ifodali tasvir hosil qilingan. Bir naqsh qismlarini turli ko'rinishlarda bo'yalishi bilan rang-baranglikka va jozibadorlikka erishilgan. Andijon, Samarqand gilamlari, qoraqalpoqlar to'qigan o'tov jihozlari badiiy jihatdan mohirona ishlangan. Andijon gilamlarining pati qisqa, qalin va mayin bo'lgan. Samarqandning rangdor uzun patli julxirs ("ayiq teri") gilami o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. XX asrga kelib, gilam o'ziga xos tarzda taraqqiy etdi, gilam markazlarida gilam to'qish rivojlandi, artellar tuzilib, ularga xalq ustalari jalb qilindi (masalan, Andijon viloyati Oyim qishlog'idagi gilam to'qish arteli), ularda bir xil naqshli, yuqori sifatli gilamlar, shuningdek, mayda ro'zg'or buyumlari to'qildi. XX asr 30-yillarning 2-yarmidan mavzuli va tasvirli gilam namunalarini yaratishga urinishlar bo'ldi. Gilam markazlarida Kavkaz gilamlari, an'anaviy turkman gilamlari xilidagi birmuncha soddalashtirilgan gilamlar ishlab chiqarildi, faqat Samarqand gilami (julxirs) o'zining an'anaviy uslubini, rangdorligini saqlab qoldi. XX asr 40-50-yillarda gilam markazlari (Samarqand va Kitobda 1946-yil; Xiva, Andijon va Termizda 1947-yil; Shahrisabzda 1949-yil; Xo'jaylida 1954-yilda) tashkil etildi, mahalliy ustalar shogirdlar tayyorladi, qadimiy an'anaviy naqshlar tiklandi. Rassom va hunarmand ustalar hamkorligi natijasida muvaffaqiyatlarga erishildi. Amaliy va mahobatli san'at an'alaridan unumli foydalanilib, dastlabki yanginusxa Xorazm gilami va unga xos bo'lgan feruza rang zamin yaratildi. 60-yillarning oxirida mayda artellar birlashtirilib yangi gilam korxonalari tashkil etildi, mohir ustalar shu korxonalarda mehnat qila boshladi. Olmaliq, Samarqand, Xiva, Forish, Shofirkon va boshqa joylardagi fabrikalarda an'anaviy naqsh mujassamoti va badiiy jihatdan ijodiy boyitilgan nafis gilamlar tayyorlandi. Hozirda gilam Farg'ona vodiysida, Qashqadaryo, Surxondaryo, Sirdaryo viloyatlari, Qoraqalpog'istonda rivojlangan. Shuningdek, Samarqand, Urgut, Qo'qon va Xorazm ham gilam markazlaridir. An'anaviy gilamchilik hunarmandlik turi (uyda to'qiladigan sifatida) rivojlanmoqda. Samarqand va Buxoroning ipak gilamlari ham keng tarqalmoqda. An'anaviy gilam rivojiga "Usto"

birlashmasi va “Hunarmand” assotsiatsiyasi munosib hissa qo‘shmoqda. Xorazmda gilamdo‘zlik to‘qimachilikning ko‘p yillardan mavjud bo‘lgan eng asosiy sohalaridan biri hisoblanadi. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, gilamchilik juda qadimgi davrlardan paydo bo‘lgan san’at turi hisoblanadi. Gilam to‘qish juda murakkab kasb bo‘lishiga qaramay aholi undan juda unumli foydalangan. Bugungi kunda ham O‘zbekistonda gilamning bir necha turlari yaratilib kelinmoqda. Qadimiy va zamonaviy gilamlarni saqlash va kelajak avlodlarga yetkazish O‘zbekiston xalqining o‘zgacha urf-odatlaridan biri ekanligi alohida ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1 *Мошкова В.Г.* Джульхирсы. Два уникальных узбекских ковра XIX в. из собрания Музея истории Академии наук Узбекской ССР./Труды Музея истории народов Узбекистана. Вып. 1. Ташкент, 1951.

2 *Мошкова В. Г.* Ковры // Народное декоративно-прикладное искусство Советского Узбекистана. Сборник статей. Ташкент, 1954.

3 *Мошкова В.Г.* Ковры народов Средней Азии конца XIX - начала XX века. Ташкент, 1970.

4 .Jabborov I., O‘zbek xalqi etnografiyasi, 1994.